

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI O'QISH SAVODXONLIGI  
DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH  
METODIKASI

Haydarova Kamola

Guliston davlat universiteti o'qituvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1119322>

**Anontatsiya.** Mazkur maqoda o'qish savodxonligi darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlari, e'tiborli jihatlari va samarali usullar xususida fikr yuritilgan bo'lib, keltirilgan ma'lumotlardan o'qituvchilar va voshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari o'z faoliyatlar davomida asosli ma'lumot sifatida foydalaniishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, o'qituvchi, o'qish savodxonligi, dars, tanqidiy fikrlash, ta'lim, tarbiya, ijodkorlik, kompetentsiya, natija, muhokama.

METHODOLOGY FOR FORMING CRITICAL THINKING SKILLS IN  
READING LITERACY LESSONS OF PRIMARY CLASS TEACHERS

**Abstract.** In this article, the possibilities, important aspects and effective methods of forming the critical thinking skills of elementary school students through reading literacy classes are discussed, and from the information presented, teachers and teachers lim students can use it as basic information during their activities.

**Key words:** student, teacher, reading literacy, lesson, critical thinking, education, upbringing, creativity, competence, result, discussion.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ У УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются возможности, важные аспекты и эффективные методы формирования навыков критического мышления учащихся младших классов посредством занятий по читательской грамотности, а на основании представленной информации учителя и педагоги-учащиеся могут использовать ее в качестве основной информации во время занятий. Деятельность.

**Ключевые слова:** ученик, учитель, читательская грамотность, урок, критическое мышление, образование, воспитание, творчество, компетентность, результат, обсуждение.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida sodir bo'lgan ta'lim jarayonidagi sezilarli o'zgarishlar (uning maqsadlari yo'nalishi, mazmuni) har bir o'quvchi shaxsining rivojlanishiga yo'naltirish lozimligini anglatadi. Milliy umumiyo o'rta ta'lim tizimini modernizasiyalash kasbiy-texnologik ta'limining yangilangan mazmuni negiziga tayanch kompetensiyalar kiritilganligini anglatadi.

Ta'limni modernizasiyalashga oid zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida faoliyatning asosiy natijasi bilim, ko'nikma va malakalar tizimidangina iborat bo'lib qolmasdan, balki davlat va jamiyat tomonidan belgilangan intellektual, ijtimoiy-siyosiy, kommunikativ, axborot va boshqa sohalar uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar tizimini shakllantirish ham lozim. Mavjud manbalar mohiyatini o'rganish jamiyatimizning ilk davrlaridayoq sog'lom turmush madaniyatini qaror toptirish, mavjud turmush madaniyati

darajasini belgilovchi mezonlarni yaratishga nisbatan ijtimoiy ehtiyoj mavjud bo‘lganligi, shuningdek, ushbu ehtiyojni qondirish yo‘lida amaliy harakatlar olib borilganligini ko‘rsatadi.

Tanqidiy fikrlash asosida o‘quvchilarda baholash, bilim, ko‘nikma va malakalar rivojlantiriladi.

Tanqidiy usullarni ko‘rib chiqishda quyidagilarni alohida ta’kidlash mumkin:

- o‘quvchining o‘qituvchi va hamkorlar bilan konstruktiv dialog tuzishga intilishi;
- o‘zgalar fikriga tayanmagan holdan o‘z fikrlarini bayon eta olishi;
- yangi ma’lumotlarni bilishga intilishi;
- qo‘yilgan vazifalarni noan‘anaviy usullar bilan yechishi;
- yetkazilayotgan ma’lumotlarni har tomonlama o‘rganish, u yoki bu hodisalarni sabablarini aniqlashi.

Hozirgi kunning talabi barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish, o‘quvchilar bilan ishslashning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqish va noan‘anaviylikka intilishni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, kichik yoshdagi o‘quvchilarni fikrlash, izlanish va aniq maqsad sari intilib ongli ravishda bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta’lim-tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo‘lishini talab etadi. Ana shunday yangi texnologiyalardan biri o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash orqali, mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, baxslashish, o‘z g‘oyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga, mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, dunyoqarashi, o‘z-o‘zini anglash, kommunikativ savodxonligi, go‘zallik va nafosatni his etib, undan zavqlana olish, aqlan va jismonan sog‘lom bo‘lish, milliy urf-odatlarni o‘ziga singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlari rivojlantiriladi. Bu o‘z navbatida kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va amalda to‘g‘ri qo‘llay olishlarini ta’minlaydi. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun darsning maqsadini aniq, pedagogik texnologiya asosida loyihalab olish muhim ahamiyatga ega.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonining muayyan jihatlari quyidagi asoslarga tayanadi:**

- o‘qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan ishtiyoyini oshirib borish;
- ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish;
- o‘quvchi tashabbusi va majburiyatini qo‘llab-quvvatlash;
- amaliyot orqali o‘rganish;
- ikki tomonlama fikr-mulohazalar almashinuvini tashkil qilish;
- o‘qish jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish; o‘quv jarayonini baholash;

O‘quvchilarning amaliy, ijodiy, mustaqil ishlari, imkon qadar individual bo‘lishi uchun sharoit yaratish talab etiladi.

O‘quvchi faoliyatining har xil turlarini uyg‘unlashtirish zaruriyati hamda barcha faoliyat turlarining muvofiqlashtirilishi ularda rang-barang tipdagisi talablarning hosil bo‘lishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi. Shu bilan birga o‘z-o‘ziga talabchanlik va mas’uliyat hissini tarbiyalaydi. O‘quv-biluv jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi ko‘p qirrali faoliyatni

vujudga keltirib, bir turdag'i faoliyatning ikkinchi turdag'i faoliyatga o'tib turishi jarayonida har bir o'quvchida o'zining shaxsiy, aniq maqsadini belgilab olish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayni shu maqsad o'quvchilarda mustaqil, ijodiy faoliyatga kirishish uchun zamin yaratadi va ularda qat'iy harakat dasturini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi pedagoglar tomonidan maxsus turdag'i topshiriqlar, mustaqil faoliyat turlarini bajarish orqali ro'yobga chiqariladi va ularning samaradorligi muayyan mezonlar yordami bilan amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni to'laqonli tarzda o'quvchiga yo'naltirilsa, uning

ehtiyoj va imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidorini hisobga olgan holda muayyan tamoyillar asosida tashkil etilsa, bunday ta'lim natijalari, birinchi navbatda, o'quvchi shaxsining o'zini, shu bilan bir qatorda, davlat, jamiyat hamda fan va ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi omil darajasiga ko'tariladi.

Ta'lim jarayoni o'quvchilar tomonidan tanlangan turli yo'llarga moslashtirilib, takomillashtirilib borilgandagina ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga zamin yaratiladi.

Ta'lim jarayoni o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga zamin yaratish uchun ko'proq o'qish darslari va unda ikki haftada bir o'tiladigan sinfdan tashqari o'qish darslarining roli benihoya kattadir.

STO'ning maqsadi – o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalashdir.Maktablarda 1959 yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan.Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilarning tasavvur va tafakkurlarini, og'zaki va yozma nutqi, ifodali o'qish malakalari, lug'at boyligi rivojlantiriladi. O'quvchi har bir yangi asar bilan tanishish jarayonida, uni mazmun-mohiyatini tushunishi uchun nutqi ravon bo'lishi, ifodali o'qishi, nutq texnikasini egallagan bo'lishi zarur. O'quvchilarni ijodkorligini va adabiyotga, kitob o'qish va uni to'g'ri tanlashni o'rgatish bilan savodli kitobxonni, ya'ni kitobni sevuvchi va uni o'qishga intiluvchi shaxslar tarbiyalanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari orqali o'quvchilar tashqi hayot, hayvonot olami, tabiat hodisalari, yurtimizning tarixiy va zamонавиyo ко'риниши, xalqi mizning hayot tarzi, milliy qadriyatlar va milliy urf odatlar kabi tushunchalar haqidagi to'liqroq ma'lumotlar ni ham ana shu darsda egallaydilar. O'quvchilarni kasbga, ijodga yo'naltirish va ular iqtidorlarini ochish,mustaqil fikrlash va tanqidiy fikr lash kabi murakkab vazifalarni yechishda ham, ushu darslarning ahamiyati juda katta. Shu bilan birga eng avvalo, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchi larni badiiy adabiyotlarni tanlash, o'qish, ularni saqlash va asar ustida ishlash kabi malakalari rivojlantiriladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib boril sagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Jamiyatimiz buyuk o'zgarishlar tomon yuz tutgan bugungi davrda erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsini tarbiyalash uchun ta'lim — tarbiya jarayonini

o'zgarti rish muammosini qo'ydi. Bu biz o'qituvchilardan o'qitish emas, o'qishga o'rgatish tizimiga o'tib, yangicha malaka, ijodiy faoliyat tajribalari ma'lum tizim

doirasida kechadigan pedagogik jarayon mahsuli bo‘lgani uchun ham bugungi kunda ijodkorlik, bilish faoliyatini ilmiy asosda boshqarish, shaxs psixologiyasini e’tiborga oлган holda o‘zini-o‘zi boshqarish tizimiga o‘tish, qisqasi yakuniy natijaning samaradoligiga erishish, bugungi kunning dolzarb muammolisidir. O‘qituvchining o‘z amaliy faoliyatida ijodiy ishlaganda ba’zi bir muammolarni yechishga noan`anaviy yondashadi.O‘qituvchining yangi usuli, yo‘l vositalarini qo‘llaydi yoki boy tajribalaridan ijodiy foydalanadi. Amaliy faoliyatidagi ijodkorlikning yuqori darajasi o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning yangi,yuqori va samara majmuasini yaratishdir.O‘qituvchi agar ijodkor bo‘lsa ta‘lim — tarbiya ishini tashkil etishda nostandard yo‘ldan boradi, ya`ni u ishini odatdagi ishdan boshqacharoq boshlaydi. O‘z faoliyatida dars o‘tishning turli usullaridan foydalanib,zamonaviy darslarni tashkil etadi.Barkamol avlodni voyaga etkazish, ular ma’naviyatini kamol toptirish maqsadida ta‘lim sohasi dagi olib borilayotgan o‘zgarishlar,yangi texnologiyalar,interfaol metodlar boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishda ham o‘z aksini topyapti.

Tanqidiy fikrlashni o‘rgatish oson ish emas, uni qancha tezroq boshlansa o‘quv jarayoni shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Ko‘pchilik psixologlarning fikriga ko‘ra, 11 – 12 yoshga kelib, odam allaqachon ma’lum bir fikrlash uslubiga ega bo‘lib, kelajakda u bolaning muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi yoki muammoni echa oladigan bo‘ladi. Tanqidiy fikrlay olish boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun qiyinchilik tug`dirishi mumkin bo‘lgan jarayon hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlay olish uchun avvalo fikrning grammatic jihatlarini, fonetik tomonlarini anglamoq lozim, ya`ni o‘quvchining o‘zi xatolikni, kamchilikni tushunishi lozim. “O‘qish kitobi” darsliklarida berilgan matnlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni matn mazmunini to‘g‘ri tushunish, ongli va ifodali o‘qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan vogelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o‘rganilayotgan materialning mazmuni, o‘quvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma, malakalari darajasiga ko‘ra amalga oshiradi. O‘quvchilarni asar matnnini o‘qishga tayyorlashda, biringchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g‘oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e’tibor qaratiladi. O‘qish faoliyati ham nutqning alohida ko‘rinishi hisoblanadi. Bolalarning fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlash, bashorat qilish, ta‘lim jarayonida interpretatsiya metodlaridan oqilona foydalanish uchun ta‘lim jarayonidagi psixologik va pedagogik xususiyatlarni aniq tasavvur eta olish lozim. Bolalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha individual xususiyatlarining raqamli ko‘rsatkichlarini aniq tasavvur etgan taqdirdagina ushbu pedagogik jarayonni obyektiv tafsirlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlashni o‘stirishda shuni inobatga olish lozimki, o‘qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e’tibor uning mazmuniga qaratilsa- da, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqeа kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o‘quvchi matn mazmunini og‘zaki hikoyalashda adashmaydi. O‘quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti)

fe'l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo'lishiga qaratish ularning nafaqato'qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Adabiyotda tanqidiy fikrlash texnologiyasini rivojlantirishning ko'plab usullari tasvirlangan. Ammo kichik yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra, ularning barchasini qo'llash mumkin emas, ko'plab texnologiyalarni ushbu toifadagi yoshlarga nisbatan "qayta ishlash" kerak. Bolalar rivojlanishining ushbu yosh bosqichida mas'uliyat hissi, atrof dunyoga qiziqish va ta'limda o'zlashtirish faoliyatları uchun eng katta imkoniyatlar mavjud.

Bizning fikrimizcha, aynan boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun tanqidiy fikrlashni turli xildagi ko'plab metodlari orasidan yoshga mos va eng samarali natijalarga eltadigan usullaridan foydalanish orkali tanqidiy fikrlashni shakllantirishni boshlash kerak, bu jarayon keljakda ham takomillashib davom etadi. Ushbu ishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ularga mos keladigan va o'z amaliyotimda foydalanadigan usullar namunalari bilan o'rtoqlashishdan iborat. Muammolarni hal qilishda inson tafakkurining namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Aqliy faoliyatni boshlashdan oldin yoshlarga ongli ravishda o'ylaydigan savollarni qo'yish va tafakkurini rivojlantirish mahoratini singdirib borish juda muhim. Haqiqatan ham biz ko'p hollarda bolalarga yod olishi kerak bo'lgan javoblarni beramizu ular yechimini topishi kerak bo'lgan muammolarni oldilariga qo'yaymiz.

Ko'rindiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish va ularga o'rgatish jarayonini tizimli ravishda tashkillash o'quvchi tanqidiy tafakkuri rivojining muhim bo'g'inidir.

Tanqidiy fikrlashning zamonaviy tadqiqotchilari bu an'anaviy ta'riflarni ijodkorlik, tasavvur, kashfiyat, aks ettirish, empatiya, bilimni bog'lash, feministik nazariya, subyektivlik, noaniqlik kabi fazilatlarni, tushunchalarni va jarayonlarni qo'shgan holda kengaytirdi. Tanqidiy fikrlashning ayrim ta'riflari bu subyektiv amaliyotlarni istisno qiladi.

Ennisning fikricha, «tanqidiy fikrlash – kuzatuv, tajriba, fikrlash yoki muloqot natijasida, ishonch hosil qilish va harakat uchun maqsadli nuqta sifatida olingan yoki yuzaga keltirilgan axborotni faol va mohirona tahlil qilish, konseptualizatsiya, qo'llash, sintez qilish va yoki baholashning intellektual tartibga solingan jarayoni».

Boshlag'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'ninmalarini shakllantirish bugungi kunda muhim vazifa hisoblanadi. Chunki yurtimizda tashkil etilgan va qisqa muddat ichida o'quvchilarning qiziqish va o'qish istaklariga sabab bo'lgan "Prezident maktablari"ga kirish uchun imtihon savollari ham aynan mantiqiy va tanqidiy fiklay olish ko'nikmalari asosida tuzilganligi bu vazifa qimmatini yanada oshirmoqda. Prezident maktablarining tashkil etilishi ham aynan iqtidorli o'quvchilarni saralash, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nан yetuk va intellektual jihatdan barkamol bo'lgan shaxsni tarbiyalash kabi ilg'or maqsadlarni ko'zda tutgan.

## REFERENCES

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1996.
2. Hasanova A. O'quvchi yoshlar tarbiyasida rag'batlantirish va tanbeh mezoni. – T.: "O'zbekiston", 1996.

3. Xodjayeva F.O. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va uning muhim jihatlari. /”Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 2017-yil, № 6, 43-47 b.
4. Turanova Iroda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o‘rni. Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10658697>
5. Nasriddinova N. A. Methods for the development of reading literacy of primary school students through independent thinking. J / International Journal of Health Sciences. – Hindiston, 2022. –1690-1695-betlar.
6. <https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS5.8968>
7. Abduraxmonova N.N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati // Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 8 UIF-2022: 8.2\ISSN:2181-3337.2114-2121 betlar.
8. <http://scientists.uz/view.php?id=3348http://scientists.uz/uploads/202208/B-432.pdf>
9. 7. Abdurakhmanova N.N. Structural and substantive features of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // The field of scientific research International scientific-online conference Part 4 November 30<sup>th</sup> Colletions of scientific works Warsaw 2022. / 115-121 betlar.
10. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/646/607/595>
11. Abdurakhmanova N.N. The practical situation of improving the methodical preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // France international scientific-online conference:“Scientific approach to the modern education system” Part 10, 5th December. / 174-177 betlar.
12. <https://interonconf.org/index.php/fra/article/view/647>